KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

Sobirova Naima Komiljon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Lingvistika (koreys tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Sobirovanaima216@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillaridagi tana a'zolari (bosh, ko'z, quloq, qo'l, oyoq, yurak) nomlari bilan bog'liq somatik frazeologizmlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotning maqsadi har ikki xalq lingvomadaniy dunyoqarashidagi umumiylik va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashdan iborat. Metodologiya sifatida qiyosiy-tipologik, komponent tahlil metodlari va lingvokulturologik yondashuv qo'llanildi. Tahlil natijasida iboralar to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz guruhlarga ajratildi hamda ularning milliy mentalitetni aks ettiruvchi semantik qatlamlari ochib berildi.*

Kalit so'zlar: *somatik frazeologizmlar, qiyosiy tahlil, koreys tili, o'zbek tili, lingvokulturologiya, semantik xususiyatlar, ekvivalentlik, somatizmlar.*

A COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN KOREAN AND UZBEK

Abstract. *This article presents a comparative analysis of somatic phraseological units associated with the names of body parts (head, eye, ear, hand, foot and heart) in the Korean and Uzbek languages. The aim of the study is to identify the commonalities and distinctive features of the linguocultural worldviews of both nations. Comparative-typological and componential analysis methods and a linguocultural approach were employed. The units were classified into full equivalents, partial equivalents and non-equivalent units, and the semantic layers reflecting national mentality were revealed.*

Keywords: *somatic phraseological units, comparative analysis, Korean language, Uzbek language, linguoculturology, semantic features, equivalence, somatisms.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ соматических фразеологизмов, связанных с названиями частей тела (голова, глаз, ухо, рука, нога, сердце),*

в корейском и узбекском языках. Цель исследования – выявить общие черты и специфические особенности лингвокультурного мировоззрения обоих народов. Использованы сравнительно-типологический и компонентный методы, а также лингвокультурологический подход. Фразеологизмы распределены на полные эквиваленты, частичные эквиваленты и безэквивалентные единицы; выявлены семантические пласты, отражающие национальный менталитет.

Ключевые слова: *соматические фразеологизмы, сравнительный анализ, корейский язык, узбекский язык, лингвокультурология, семантические особенности, эквивалентность, соматизмы.*

KIRISH

Bugungi kunda turli tillarning frazeologik tizimlarini qiyosiy o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, koreys va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ikki xalq tilida inson tana a’zolari bilan bog‘liq tushunchalarning qanday ifodalanishini, ularning semantik xususiyatlarini hamda milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, koreys va o‘zbek tillarining frazeologik boyligini o‘rganish bilan, ikkinchi tomondan, ikki xalqning til va madaniyatidagi umumiylik hamda farqlarni ochib berish zarurati bilan belgilanadi.

Maqolaning maqsadi – koreys va o‘zbek tillaridagi “bosh”, “ko‘z”, “quloq”, “qo‘l”, “oyoq” va “yurak” komponentli somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilib, ulardagi umumiy va milliy-madaniy o‘ziga xos jihatlarni aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslikda somatik frazeologizmlar muammosi milliy-madaniy dunyoqarash, lingvokulturologiya hamda qiyosiy tipologiya yo‘nalishlarining dolzarb masalalaridan biri sifatida keng o‘rganib kelinmoqda. Insonning jismoniy tanasi va uning a’zolari (bosh, yurak, ko‘z, qo‘l va boshqalar) iboralarning shakllanishida universal asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois bu mavzu koreys va o‘zbek tilshunosligida ham o‘z ilmiy aksini topgan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya va somatizmlar sohasi boy ilmiy an’anaga ega. Jumladan, Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov kabi yetakchi olimlarning tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning tarkibiy-semantik xususiyatlari, ularning yuzaga kelish manbalari atroflicha yoritib berilgan [1; 2; 3]. M.R.Toshmatov o‘z maqolasida frazeologik birliklarning lug‘aviy ma’nosi, koreys tilidagi frazeologik birliklar, xitoy tilidan koreys tiliga o‘zlashgan frazeologik birliklar hamda ularning

o'zbek tili bilan qiyoslanishi haqida ma'lumot bergan[49]. D.S.Sayfullayev esa 귀, 입, 눈 va 머리 komponentli 15 ta somatik frazeologik birlikni tizimlashtirib, ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari, analoglari va mazmuniy muqobillarini chog'ishtirma-lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilgan[50]. So'nggi yillarda somatik frazeologizmlarning lingvokulturologik va konseptual xususiyatlarini ochib berishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar yaratildi [5].

Koreys tilshunosligida somatik iboralar (신체 관용구) tadqiqi, asosan, tilning milliy o'ziga xosligi va kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan olib borilgan. Jumladan, Mun Geum-hyeon koreys tilidagi frazeologik iboralarni tizimli tadqiq etgan, Park Yeong-jun va Choi Gyeong-bong frazeologik iboralar lug'atini yaratgan, Kim Jin-hae esa turg'un birikmalarni o'rgangan [6; 7; 8]. Ikki tilni qiyosiy o'rganish masalasiga kelsak, so'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarning kuchayishi tufayli bunday tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq genealogik jihatdan turlicha bo'lgan koreys tili (ayrim olimlar uni oltoy tillari oilasiga kiritsa, ko'pchilik tadqiqotchilar alohida koreya tillari oilasiga mansub deb hisoblaydi) va turkiy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek tili somatik frazeologizmlarining milliy-madaniy o'ziga xosliklari, ularning o'xshash va farqli tomonlari hali kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga, xususan, ikki xalq mentalitetining somatik frazemalar orqali namoyon bo'lishini ochib berishga qaratilgan.

Metodlar.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, koreys va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilishda quyidagi metod va yondashuvlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tipologik metod koreys va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning semantik strukturasi, obrazli asoslari va lingvokulturologik xususiyatlarini o'zaro taqqoslashda asosiy metod sifatida qo'llanildi. U ikki tilda tana a'zolarining universal va o'ziga xos ramziy ma'nolarini aniqlash imkonini berdi.

Komponent tahlil metodi frazeologik birliklarning ma'no tuzilishini kichik semantik qismlarga ajratish orqali tahlil qilishda ishlatildi. Bu usul yordamida somatik komponentlarning (masalan, koreyscha 눈 (nun) va o'zbekcha *ko'z*) ma'noviy ko'lami va frazeologik birikish xususiyatlari aniqlandi.

[49] https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/13843
[50] https://phoenixpublication.net/

Lingvokulturologik yondashuv somatik frazemalar zamiridagi milliy-madaniy konseptlar, xalq mentaliteti, urf-odatlar va psixologik xususiyatlarni ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot materiali sifatida har ikki tilning izohli va frazeologik lug'atlari hamda badiiy adabiyotlardan olingan misollardan foydalanildi [1; 7; 10]. Tahlil uchun eng faol qo'llanadigan somatik komponentlar tanlab olindi: bosh – 머리, ko'z – 눈, quloq – 귀, qo'l – 손, oyoq – 발, yurak – 가슴, shuningdek, koreys tilida jasorat va qo'rquv tushunchalarini ifodalovchi 간 (jigar). Somatik frazeologizmlarning asosiy xususiyati shundaki, ular tarkibida tana a'zolarini bildiruvchi so'zlar qatnashsa-da, ko'chma ma'noni ifodalaydi. Koreys tilida bunday iboralar 신체 관용 표현 deb ataladi. Ibora va uning muqobili obrazi hamda ma'nosi to'liq mos kelsa, *to'liq ekvivalent*, ma'nosi mos kelib obrazi farq qilsa, *qisman ekvivalent*, ikkinchi tilda frazeologik muqobili bo'lmasa, *ekvivalentsiz* birlik sifatida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. "Bosh" (머리) komponentli frazeologizmlar

Inson tanasining eng yuqori qismi sifatida "bosh" so'zi har ikki tilda aqliy faoliyat, tafakkur, xotira hamda rahbarlik, ustunlik tushunchalari bilan bog'liq konseptlarni hosil qiladi.

O'zbek tilida "bosh qotirmoq" (biror narsa haqida ko'p o'ylamoq) iborasi mavjud bo'lsa, koreys tilida bunga yaqin 머리를 썩이다 (meorireul sseogida – so'zma-so'z "boshni chiritmoq", ya'ni biror masala tufayli qattiq qiynalmoq) yoki 머리를 쓰다 (meorireul sseuda – "boshni ishlatmoq", ya'ni o'ylamoq, aql ishlatmoq) iboralari qo'llanadi. Bu yerda har ikki madaniyatda bosh aqliy zo'riqish markazi sifatida idrok etilishi ko'rinadi. 머리를 맞대다 iborasi so'zma-so'z "boshlarni bir-biriga tutashtirmoq" deb tarjima qilinadi va ko'chma ma'noda "birgalikda maslahatlashmoq" ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida bunga ma'nan yaqin "bir yoqadan bosh chiqarmoq" (hamjihat bo'lib harakat qilmoq) iborasi mavjud. Har ikki iborada "bosh" hamjihatlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

머리가 복잡하다 iborasi so'zma-so'z "boshi chigal (murakkab)" deb tarjima qilinadi va o'zbek tilidagi "xayoli parishon bo'lmoq", "boshi qotmoq" iboralariga to'g'ri keladi.

2. "Ko'z" (눈) komponentli frazeologizmlar

"Ko'z" so'zi har ikki tilda insonning tashqi olamni idrok etishi, hissiyotlari (qo'rquv, quvonch, g'azab, mehr) va axloqiy bahosini ifodalashda yetakchi o'rin tutadi.

눈이 빠지도록 기다리다 iborasi so'zma-so'z "ko'zi chiqib ketgudek kutmoq" deb tarjima qilinadi va o'zbek tilidagi "ko'zi to'rt bo'lmoq" (intizorlik bilan kutmoq) iborasiga

mos keladi. 눈에 띄다 iborasi so‘zma-so‘z “ko‘zga tushmoq” bo‘lib, o‘zbek tilidagi “ko‘zga tashlanmoq”, “ajralib turmoq” iboralariga to‘g‘ri keladi. 눈에 넣어도 아프지 않다 (“ko‘zga solsa ham og‘rimaydi”) iborasi farzand yoki yaqin kishiga nisbatan cheksiz mehrni ifodalaydi va o‘zbek tilidagi “ko‘z qorachig‘idek asramoq” iborasi bilan ma’nodosh. Har ikki tilda “ko‘z” nafaqat tana a’zosi, balki hissiyot, idrok, munosabat va baholashni ifodalovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

3. “Quloq” (귀) komponentli frazeologizmlar

“Quloq” har ikki tilda eshitish, diqqat va axborotni qabul qilish bilan bog‘liq ma’nolarni ifodalaydi. 귀가 얇다 iborasi so‘zma-so‘z “qulog‘i yupqa” deb tarjima qilinadi va boshqalarning gapiga tez ishonadigan, ta’sirga beriluvchan kishiga nisbatan qo‘llanadi. O‘zbek tilida bu ma’no somatik ibora bilan emas, “gapga ishonuvchan”, “birovning gapiga tez kiradigan” kabi erkin birikmalar orqali ifodalanadi. Demak, bu ibora o‘zbek tiliga nisbatan ekvivalentsiz birlik bo‘lib, koreys tilining milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

귀가 따갑다 iborasi so‘zma-so‘z “qulog‘i achishmoq” bo‘lib, bir gapni ko‘p eshitaverib bezor bo‘lmoqni bildiradi. O‘zbek tilidagi “quloq-miyani yemoq” iborasi ma’nan unga yaqin, biroq nuqtayi nazar farqli: koreys iborasi tinglovchining holatini, o‘zbek iborasi esa so‘zlovchining harakatini tavsiflaydi.

4. “Qo‘l” (손) va “oyoq” (발) komponentli frazeologizmlar

손이 크다 iborasi so‘zma-so‘z “qo‘li katta” deb tarjima qilinadi va saxiy, biror narsani mo‘l-ko‘l qiladigan kishini tavsiflaydi. O‘zbek tilida unga “qo‘li ochiq” iborasi mos keladi: ikkala iborada ham saxovat qo‘l obrazi orqali ifodalangan, ammo belgi turlicha (katta – ochiq). 손을 떼다 (“qo‘lini ajratmoq”) iborasi biror ishni tashlamoq, undan voz kechmoq ma’nosida qo‘llanib, o‘zbek tilidagi “qo‘l siltamoq” iborasiga to‘g‘ri keladi.

발이 넓다 iborasi so‘zma-so‘z “oyog‘i keng” bo‘lib, tanish-bilishi ko‘p kishiga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek tilida bu ma’no somatik ibora bilan ifodalanmaydi, shuning uchun u ekvivalentsiz birlik hisoblanadi. 발을 끊다 (“oyog‘ini uzmoq”) iborasi esa biror joyga borib-kelishni to‘xtatmoq ma’nosini bildiradi va o‘zbek tilidagi “oyog‘ini uzmoq” iborasi bilan ham obraz, ham ma’no jihatdan to‘liq mos keladi.

5. “Yurak” (가슴) va “jigar” (간) komponentli frazeologizmlar

Hissiy holatlarni ifodalashda o‘zbek tilida “yurak” yetakchi o‘rin tutsa, koreys tilida 가슴 (ko‘krak, yurak sohasi) va 간 (jigar) komponentlari faol qo‘llanadi. 가슴이 아프다 (“ko‘ksi og‘rimoq”) iborasi qattiq qayg‘urmoq, achinmoq ma’nosida kelib, o‘zbek tilidagi “yuragi ezilmoq” iborasiga mos keladi.

Ayniqsa, jasorat va qo‘rquvni ifodalovchi iboralarda ikki xalq dunyoqarashidagi farq yaqqol ko‘rinadi. 간이 크다 (“jigari katta”) iborasi jasur, dadil kishini tavsiflaydi, 간이 콩알만 해지다 (“jigari no‘xatdek bo‘lib qolmoq”) esa qattiq qo‘rqmoqni bildiradi. O‘zbek tilida bu ma’nolar “yurak” orqali ifodalanadi: “yuragi bor”, “yuragi dov bermoq” – jasorat, “yuragi qinidan chiqmoq” – qo‘rquv ma’nosida. O‘zbek tilida “jigar” esa, aksincha, mehr va yaqin qarindoshlik (“jigarim”, “jigarbandim”) tushunchalari bilan bog‘liq. Demak, bir xil tana a’zosi ikki madaniyatda turli konseptlarning ramziga aylangan.

Jadval. Koreys va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning ekvivalentlik darajasi

Koreys iborasi	So‘zma-so‘z tarjimasi	O‘zbek tilidagi muqobili	Ekvivalentlik turi
머리를 쓰다	boshni ishlatmoq	kallasini ishlatmoq	to‘liq
머리를 맞대다	boshlarni tutashtirmoq	bir yoqadan bosh chiqarmoq	qisman
머리가 복잡하다	boshi chigal	boshi qotmoq	qisman
눈이 빠지도록 기다리다	ko‘zi chiqqudek kutmoq	ko‘zi to‘rt bo‘lmoq	qisman
눈에 띄다	ko‘zga tushmoq	ko‘zga tashlanmoq	to‘liq
눈에 넣어도 아프지 않다	ko‘zga solsa ham og‘rimaydi	ko‘z qorachig‘idek asramoq	qisman
귀가 얇다	qulog‘i yupqa	– (gapga ishonuvchan)	ekvivalentsiz
귀가 따갑다	qulog‘i achishmoq	quloq-miyani yemoq	qisman
손이 크다	qo‘li katta	qo‘li ochiq	qisman
손을 떼다	qo‘lini ajratmoq	qo‘l siltamoq	qisman
발이 넓다	oyog‘i keng	– (tanish-bilishi ko‘p)	ekvivalentsiz
발을 끊다	oyog‘ini uzmoq	oyog‘ini uzmoq	to‘liq
가슴이 아프다	ko‘ksi og‘rimoq	yuragi ezilmoq	qisman
간이 크다	jigari katta	yuragi bor	qisman
간이 콩알만 해지다	jigari no‘xatdek bo‘lmoq	yuragi qinidan chiqmoq	qisman

Jadvaldan ko‘rinadiki, tahlil qilingan 15 ta iboradan 3 tasi to‘liq ekvivalent, 10 tasi qisman ekvivalent va 2 tasi ekvivalentsiz birlikdir. Qisman ekvivalentlarning ustunligi

ikki tilda tana a'zolari bilan bog'liq ko'chma ma'nolar umumiy bo'lsa-da, ularni ifodalovchi obrazlar milliy-madaniy omillar ta'sirida turlicha shakllanganini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar xalqning milliy dunyoqarashi va turmush tarzidan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, ikki tilning o'ziga xos jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil ko'rsatganidek, somatik komponentlar bir xil bo'lishiga qaramay, ularning ma'noviy ko'lami va obrazli asoslari har bir xalqning urf-odatlari, tarixiy-falsafiy qarashlari (koreys tilida konfutsiychilik va buddizm ta'siri, o'zbek tilida sharqona an'anaviy va islomiy qadriyatlar) bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Bu holat ayrim iboralarning to'liq mos kelmasligi, ekvivalentsiz birliklarning mavjudligi hamda bir xil tana a'zosining (masalan, jigar) ikki madaniyatda turli konseptlarni ifodalashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Somatik frazeologizmlar millatning emotsional-ekspressiv baholash tizimini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalaridan koreys va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi, chog'ishtirma frazeologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, ikki tilli lug'atlar va o'quv qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.

2. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. – Toshkent: Fan, 1997. – 224 b.

3. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: filol. fan. dokt. ... dis. – Toshkent, 1993. – 290 b.

4. Isayev I. O'zbek tilida somatik frazeologizmlar. – Toshkent: Fan, 2005. – 148 b.

5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya: darslik. – Toshkent: Universitet, 2019. – 248 b.

6. 문금현 (Mun Geum-hyeon). 국어의 관용 표현 연구 (Koreys tilidagi frazeologik iboralar tadqiqi). – 서울: 태학사, 1999. – 432 쪽.

7. 박영준, 최경봉 (Park Yeong-jun, Choi Gyeong-bong). 관용어 사전 (Frazeologik iboralar lug'ati). – 서울: 태학사, 1996. – 580 쪽.

8. 김진해 (Kim Jin-hae). 연어 연구 (Kollokatsiyalar va turg'un birikmalar tadqiqi). – 서울: 한국문화사, 2000. – 312 쪽.

9. Khamidova M. Lingvoculturological features of somatic phraseologisms in Uzbek and Korean languages // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Vol. 8, Issue 5. – P. 412–418.

10. 국립국어원. 표준국어대사전 (Koreya Milliy til instituti. Standart koreys tili izohli lug'ati). – https://stdict.korean.go.kr